



## FARG'ONA VILOYATIDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING VUJUDGA KELISHI TARIXIY ASOSLARI

Suyarqulova Guljaxon

Farg'ona davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7908008>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

### KEY WORDS

*pillachilik, paxta tolasi, yengil sanoat, hunarmandchilik, trikotaj sanoati, to'qimachilik sanoati,*

### ABSTRACT

*maqolada XIX asr oxiri va XX asrlarda Farg'ona viloyatida yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi tarixiy asoslari taxlil qilingan.*

Respublikada 1980-yillarga kelib, ipak ip ishlab chiqarish 1711 tonnani tashkil etdi, 113,8 mln metr kvadrat shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi. 1984 yilda respublika pillachilik fabrikalarida keskin ipak xomashyosi sifatini pasayishi kuzatilgan[1]. Natijada xomashyoning ko'pgina qismi chiqitga chiqarilib, mahsulot hajmini kamayishiga olib kelgan[2]. Respublikada 1988 yilda 138 mln kv metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan. 1988 yilda kooperativlar (kooperativ-xo'jalik faoliyatidan daromad oladigan uyushma va birlashmalar) soni ham oshib borgan[3]. 1989 yilning birinchi yarmida respublikada 71,6 mln kv metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan[4]. Respublikada 1990 yilga kelib ipakchilik sanoatida 2522 tonna ipak ip, 144,2 mln kv metr shoyi gazmollar ishlab chiqarildi.

1987-yilga kelib esa, O'zbekiston SSR da yengil sanoat korxonalari soni 362 taga yetdi. Farg'ona viloyati kesimida esa 56 tani tashkil etgan[5].

O'zbekiston SSRda yengil sanoat korxonalari tomonidan 1940-yilda 534,4 ming tonna, 1960-yilda 1063,8 ming tonna, 1970-yilda 1383,8 ming tonna, 1980-yilda 1745,3 ming tonnani paxta tolasi qayta ishlangan. Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Farg'ona vodiysi viloyatlari yetakchilik qilgan. Shuningdek, O'zbekiston SSRda xom ipak 1940-yilda 693 tonna, 1960-yilda 856 tonna, 1970-yilda 1172 tonna, 1986-yilda 2228 tonna ishlab chiqarilgan[6]. Farg'ona yengil sanoat korxonalari qatorida pillakashlik fabrikasi, Qo'qon paypoq to'qiydigan va tikuvchilik hamda poyabzal fabrikalarini sanash mumkin[7].

Shuningdek, Farg'ona viloyati shaharlari va aholi ko'p punktlarda hunarmandchilik kooperatsiyalarining shoyi to'qiydigan o'nlab korxonalari bor bo'lib, ularda turli shoyi kiyimlar tayyorlangan. 1950-yillarda Marg'ilon ipak kombinati ancha kengaytirilgan. Hamda moddiy texnik bazasi yangilangan[9][8]. Bundan tashqari sanoat korxonalarining ko'payishi bilan bir qatorda ishchilar soni ortib bordi.

Ipakchilik sanoatida korxonalar shoyi gazlamalar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha

ixtisoslashdi, korxonalarda krepdeshin, krepshifon, krepjorjet, ipakdan milliy gazlamalar: atlas, xonatlas, beqasam, shoyi, shuningdek, plashbop, kostyumbop, astarbop gazlamalar, shtapel, viskoza va aralash tolalardan kiyim-kechak tikiladigan gazlamalar, tukli va jakkard gazlamalar, sun'iy iplardan abrli gazlamalar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ipakchilik sanoati mahsulotlari chet ellarga eksport qilingan. Bundan tashqari, Samarqand to'quv fabrikasida ham shoyi matolar tayyorlangan. Jumladan, ushbu fabrikada 1968 yil 4-chorak (kvartal)da jami 15000 metr krepdeshin, 259000 metr atlas ishlab chiqarilgan[9]. Namangandagi ipak to'quv fabrikasida 1969 yili 600 ta sovg'a uchun (suvenir) tayyorlangan atlaslar ishlab chiqilgan[10].

## 12-jadval

### 1940-1980 yillarda O'zbekiston SSRda tayyorlangan ipak matolar hajmi[11]

Yillar	Tayyorlangan ipak matolar hajmi (ming metr uzunlik hisobida)
1940	4 534
1950	8 686
1960	24 062
1965	37 777
1970	50 358
1975	94 230
1980	116 585

Jadvalda kuzatilganidek, respublika korxonalarida ipak matolar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortgan. 1940 yilda O'zbekiston SSR bo'yicha ishlab chiqarilgan ipak matolarning 2296 ming metr uzunlikdagi hajmi Farg'ona viloyatiga, 854 ming metr uzunlikdagi hajmi Samarqand viloyatiga, 647 ming metr uzunlikdagi hajmi Namangan viloyatiga to'g'ri kelgan. 1970 yilda O'zbekiston SSR bo'yicha ishlab chiqarilgan ipak matolarning 36 236 ming metr uzunlikdagi hajmi Farg'ona viloyatiga, 10 352 ming metr uzunlikdagi hajmi Samarqand viloyatiga, 3 711 ming metr uzunlikdagi hajmi Namangan viloyatiga tayyorlangan edi. Yuqoridagi jadvaldagi respublika ko'rsatkichlariga viloyatlar bo'yicha natijalar taqqoslansa, eng ko'p ishlab chiqarish hajmi Farg'ona viloyatiga, keyin esa Samarqand va Namangan viloyatlariga tegishli ekanligi ko'rinadi.

1960 yillarga kelib, respublika 6 ta iqtisodiy rayonlaridan biri sifatida Farg'ona viloyati ahamiyati ortib bordi[12]. Farg'ona viloyatining ishlab chiqarish usuli va uslubi o'ziga xos bo'lgan[13]. O'zbekiston SSRda Farg'ona asosiy paxta xomashyosi yetishtiradigan va paxtachilikka xizmat qiladigan sanoatning rivojlanishi bilan o'z o'rniga ega bo'lgan. Paxtachilik kompleksiga kiruvchi qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada nufuzga ega hisoblangan. Paxtachilik respublika qishloq xo'jaligi uchun paxta tozalash, to'qimachilik sanoati sohalarini o'zgartirish imkonini bergan. Shu tariqa, butun respublikada, xususan Farg'ona viloyatida bir tomonlama xomashyo tuzilmasi shakllandi[14]. Paxtadan kiyim - kechaklar, moy, sovun, sellyuloza, sun'iy ipak, gilamlar, kigizlar, arqonlar, iplar, ko'rpalik paxta, odevallar va qog'oz ishlangan. Paxta lintidan sellyuloza ishlansa, sellyulozadan sun'iy ipak olingan, sun'iy ipakdan esa turli gilamlar, trikotaj paypoqlar va boshqa buyumlar tayyorlangan. Paxta oziq-ovqat sanoati uchun ham muhim hisoblanib, bir

tonna chigitdan 147 kg yog‘, 400 kg kunjara, 20 kg momiq, 375 kg sheluxa, 11,5 kg soabstok, 20 kg sovun olingan[15].

Paxta sheluxasidan yoqilg‘i, o‘g‘it va chorva mollari uchun ozuqa sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan. Shu bilan birga sheluxadan ishlanadigan tola sellyulozaga, portlovchi moddalarga, presslangan qog‘ozga va boshqa mahsulotlarga aylantirilgan[16]. Paxta tolasi mamlakat hayoti uchun har tomonlama kerakli xomashyo hisoblangan.

1960 yillarga kelib Farg‘ona, Marg‘ilonda ikkita yirik ipakchilik fabrikasi va bitta shoyi to‘qish fabrikasi Marg‘ilonda ishladi. Marg‘ilondagi pillakashlik va shoyi to‘qish fabrikalari bir kombinatga birlashtirilib, bu kombinat sovet ittifoqidagi ipak ishlovchi korxonalarining eng yirigi hisoblandi. Kombinatt pillani chuvatadigan va gazlama to‘qiydigan yangi, yuqori unumli uskunar bilan jihozlandi. Kombinatt qoshida bo‘yoqchilik - pardozlash fabrikasi ham bor edi. Marg‘ilonda shoyi - polotno, jujuncha, krepdeshin hamda boshqa ipak gazlamalar ishlab chiqarilgan edi.

Respublikaning pillakashlik fabrikalari O‘zbekistonda tayyorlanadigan hamma pillani chuvatib bergan. Ularning asosiy qismi yirik davlat fabrikalariga, qolgan qismi esa hunarmandchilik korxonalarida ishlangan. Pillani chuvatib olingan ipak xomashyoning 50 foiz dan ko‘prog‘iga respublikaning shoyi to‘qish fabrikalarida ishlov berilib, ipak gazlama to‘qiladi. Gazlamalar respublika aholisi ehtiyojini qondirishdan tashqari, mamlakatning boshqa rayonlariga ham yuborilgan.

Trikotaj sanoati tarkibiga Qo‘qondagi yirik paypoq to‘qish kombinati, yuqori sifatli ustki trikotaj ishlab chiqarish Farg‘ona viloyatlarida joylashtirilgan hunarmandchilik kooperatsiyasining mashinalashtirilgan korxonalari kirgan edi[17].

1960 yillarning oxirlarida O‘zbekiston SSR shaharlarida 90 ga yaqin yirik tikuvchilik korxonalari ishladi. Ularning bir qismi mahalliy va kooperativ sanoati tizimiga kiritilgan edi. Yirik va yaxshi mashinalashtirilgan tikuvchilik fabrikalaridan bir Qo‘qonda, hajmi jihatdan kichikrog‘i esa Farg‘ona va boshqa shaharlarda joylashdi. Chiqarayotgan mahsulot bo‘yicha O‘zbekiston tikuvchilik sanoati Sovet Ittifoqining tikuvchilik sanoatida salmoqli o‘rinni egalladi. U faqat respublika aholisining tikilgan buyumlarga bo‘lgan talabini qondiribgina qolmay, tayyor mahsulotlarni mamlakatning boshqa rayonlariga ham chiqardi.

Sovet mustamlakasi davrida butun O‘zbekiston SSRda rejali iqtisodiyot to‘la ma‘noda hukmronlik qilib, jamiyat hayotida bir tomonlama iqtisodiy siyosat amalga oshirildi. Mazkur amaliyot asosan markaz iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirildi hamda unga to‘laqonli ravishda xizmat qildi. Oqibatda, XX asrning 60-80 yillaridan e‘tiboran iqtisodiyot sohasida inqirozli xolatlar, jumladan ishlab chiqarish darajasi hamda hajmining pasayishi ko‘zga tashlandi. Xususan, XX asrning 90-yillari birinchi yarmida sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalardagi, qolaversa O‘zbekiston SSRdagi aksariyat sanoat korxonalari faoliyati zaruriy xomashyo mahsulotlari mavjud emasligi tufayli deyarli to‘xtab qoldi.

Ma‘lumki, aksariyat davlatlarda sanoat odatda uch yirik guruhga, ya‘ni og‘ir, yengil va oziq-ovqat sanoat turlariga bo‘lingan. Xususan 1980-1990 yillarda O‘zbekiston yengil sanoati korxonalari faoliyatida o‘ziga xos muraakkab jarayonlar yuz berdi. Jumladan, hukumat rejalarini, bu borada mahalliy sharoitlarni chuqur o‘rganmasdan, hisobga olmasdan turib belgilagan. Ayni holatlarning oqibati 1970-yillar sanoat korxonalari hayotida aks etgan. Yengil sanoat korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish hajmi ortib borsa-da, yildan-yilga sifat ko‘rsatkichlar pasayib borgan. Demak, sifat ko‘rsatkichlari tobora tushib borsa-da, ishlab

chiqarish hajmi ortib borgan. Hukumat tomonidan qo'yilgan topshiriqlarni korxonalar bajarishga intilgan. Biroq, ushbu holat yillar davomida to'liqsimon tarzda o'zgarib turgan. Ishlab chiqarishda (rejali iqtisod asosida) miqdoriy ko'rsatkichlar birlamchi qilib belgilanib, sifatiga e'tibor berilmagan. Binobarin, korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot o'z xaridorgirligini yo'qotib borgan.

Sovet mustamlakasi davrida yengil sanoat korxonalarini xomashyosini ishlab chiqarish borasida Farg'ona viloyati muntazam yetakchilik qilgan. Masalan, 1982 yilda O'zbekiston SSRda jami 1864 tonna ipak xomashyosini ishlab chiqargan bo'lsa, shundan 879 tonnasi Farg'ona, 251 tonnasi Namangan, 185 tonnasi Qashqadaryo viloyati tomonidan tayyorlangan. Respublikada 1980-yillarga kelib, ipak ip ishlab chiqarish hajmi 1711 tonnani tashkil etdi, hamda 113,8 mln. metr kvadrat shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi. Biroq, Respublika pillachilik fabrikalarida 1984 yilda keskin ipak xomashyosi sifatining pasayishi holati kuzatilgan. Oqibatda xomashyoning ko'pgina qismi chiqitga chiqarilib, mahsulot hajmining kamayishiga olib kelgan.

1989-yilning birinchi yarmida respublika to'qimachilik korxonalarida 71,6 mln. kv. metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan.

O'zbekiston yengil sanoati korxonalariga musobaqa an'anasi kirib keldi va mavjud fabrikalarida bunday musobaqalar «Rjev to'qimachilik fabrikasiga tenglashaylik!» kabi shiorlar ostida davom etdi. Ushbu targ'ibot shakli bilan fabrikalarda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarishga ilg'or texnikani joriy qilishga qaratilgan edi. Tez orada hukumat «targ'iboti» natija bera boshlagan. Masalan, Farg'ona pillachilik fabrikasining yoshlar brigadasi Rjev to'qimachilaridan ibrat olib, mehnat unumdorligini teng baravarga oshirgan.

Biroq, sovet mustamlakasi davrida yengil sanoat sohasida o'ziga xos yutuqlar bilan birga jiddiy muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, soha muammolaridan biri xomashyo yetishtirish bilan uni qayta tayyorlash o'rtasidagi mustahkam, uzviy bog'liqlik mavjud emasligi edi. O'rnatilgan qoidaga ko'ra, paxta va pilla mato to'qish fabrikasida qayta ishlanib, avval Moskva (markaz)ga jo'natilgan. So'ngra, gazlama holatida, qimmat narxda yana qayta ayirboshlash uchun O'zbekistonga qaytib kelgan. Sovet hokimiyati xomashyoni o'lkada qayta ishlash maqsadida fabrikalari faoliyatini yo'lga qo'ygan edi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, garchi O'zbekiston SSR da paxta tozalash sanoati rivojlangan bo'lsa-da, amalda ushbu tarmoq Rossiyaning to'qimachilik sanoatiga xomashyo yetishtirib beruvchi bo'g'in vazifasini bajargan. Shuningdek, O'zSSRdagi mavjud sanoat korxonalarining moddiy texnik ta'minoti markazning, hatto O'rta Osiyoning boshqa hududlarigi ishlab chiqaruvchi fabrikalaridan ancha past edi[11]

O'lkaning mehnatkash aholisi respublika sanoatini yanada rivojlantirish uchun o'z malakasi va turmush darajasini yuqori darajaga ko'tarish uchun kurashdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. СВДА, 494-фонд, 1-рўйхат, 37-иш, 1-варақ.
2. СВДА, 494-фонд, 1-рўйхат, 35-иш, 1-варақ.
3. Совет Ўзбекистони. – 1988. – 31 январь. – № 25 (20.292)
4. Экономикани қайта қуриш йўлидан // Совет Ўзбекистони. – 1989. –5 август. – №181 (20.448).
5. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. – Т.:Узбекистан,1988.

6. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. – Т.:Узбекистан,1988.
7. Фуломов Я.Ф., Набиев Р.Н., Ваҳобов М.Ф. Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент:1958.
8. Фуломов Я.Ф., Набиев Р.Н., Ваҳобов М.Ф.Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент:1958.
9. ЎЗР МДА, Р.2675-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 12-варақ.
10. ЎЗР МДА, Р.2675-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 13-варақ.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1968 г. Стат. ежегодник.– Ташкент: Узбекистан, 1970. – С.75. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. Стат. ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – С.61.
12. Совершенствование структуры народного хозяйства Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1987. – С.72.
13. Қаранг: Управление социалистическим производством. Вопросы теории и практики. – Москва: Экономика, 1978. – С. 678-679.
14. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 61 бет.
15. СССР экономикасида пахтанинг аҳамияти // Қизил Ўзбекистон. 1953 йил 25 ноябрь.
16. Бедринцев К.Н. СССР Халқ хўжалигида Ўзбекистоннинг тутган ўрни. ... – 7 бет.
17. Ўз МА, Р-2303-фонд, 2-рўйхат, 6-йиғма жилд, 15-варақлар.
18. Фуломов Я. Ф.,Набиев Р.Н., Ваҳобов М,Ф. Ўзбекистон ССР тарихи –Тошкент:1958.
19. Mannonjonovich, M. A., & Qurbon, S. (2021, June). A Look At The Activities Of Osman Khoja In The Ussr. In E-Conference Globe (Pp. 53-55).
20. Mannonjonovich, M. A. (2021, June). Usmon Khoja Polatkhojaev's Participation In Jadidish Movement. In E-Conference Globe (Pp. 49-52).

INNOVATIVE  
ACADEMY